XURSHID DAVRON IJODIDA DEYKSISNING IFODALANISHI

Sultanova Xurshida Uktamjanovna
O'z.MU lingvistika: o'zbek filologiyasi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada bugungi kun tilshunosligining yangi yo'nalishlaridan biri pragmalingvistikaning o'rganish obyekti bo'lgan deyksis hodisasi hamda uning badiiy asarlardagi o'rni ochib berilgan. O'zbek adabiyotidagi badiiy asarlar til tizimining turli tomonlaridan keng tadqiq qilingan. Shunday bo'lsa-da pragmatik jihatdan tahlil qilinmagan bir qancha badiiy asarlar mavjud. Bu maqolada pragmatikaning asosiy tushunchasi deyksis hodisasi va uning mohiyati Xurshid Davronning " Sohibqiron nabirasi yoxud mitti yulduz qissasi" nomli asari tarkibiga kiruvchi " Anqara ustida porlar mungli oy…" hikoyasi orqali tahlil qilindi. Yozuvchi asarining deyktik xususiyatlari ochib berildi.

Kalit so'zlar: deyktik vositalar, nutqiy faoliyat, pragmatika, deyksis hodisasi, zamon deyksisi, makon deyksisi, shaxs deyksisi, sotsial deyksis, olmosh, Xurhid Davron

KIRISH

XX asrning 60-yillariga kelib jahon tilshunosligida antropolingvistika yo'nalishi rivojlandi. Antropolingvistika o'zidan oldingi struktur tilshunoslikdan farqli ravishda pragmalingvistika, psixolingvistika, kognitolingvistika kabi til bilan bog'liq masalalarda, xususan matnni o'rganishda so'zlovchi va tinglovchi shaxsini birinchi o'ringa qo'ydi. Pragmatikaning rivojlanishi esa matnni turli aspektda o'rganishni taqozo etmoqda. Ushbu sohada o'z yechimini kutayotgan muammolar bir talay. Shunday muammolardan biri sifatida matndagi deyksis va uning pragmatik xususiyatlarini ta'kidlash lozim. Maqolamizda zamonaviy o'zbek adabiyotining ustunlaridan biri Xurshid Davron asarlari misolida deyksis va uning xususiyatlarini o'rganishni maqsad qildik.

METODLAR

Maqolani tayyorlashda badiiy matn analiziga oid qarashlardan, tavsifiy, komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Insoniyat yaralibdiki, kishilar nutq vositasida fikrlarini ifodalaganlar. Nutqiy faoliyat ijtimoiy hodisa sifatida har doim tilshunoslarning tadqiq markazida bo'lgan. Bu borada bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. XX asrning 60-yillarida belgining insonga, fikrlash uslubiga, axloqiga va his-tuyg'usiga ta'sirini kontekst asosida o'rganish rivojlanishi natijasida ilm-fanga pragmatika yo'nalishi kirib keldi. "Pragmatika" -yunoncha pragmos so'zidan olingan bo'lib "ish", "harakat" ma'nolarini beradi. M. Hakimov pragmatika fikr ifodalash taktikasi ekanligini aytib o'tadi. Pragmatik tahlilda jonli nutqiy faoliyat muhim hisoblanadi.

Pragmatikaning tayanch tushunchalaridan biri deyksis hodisasidir. Deyksis hodisasi orqali nutqiy faoliyat va nutqiy vaziyat o'rganiladi. "Deyksis" atamasi yunon tilidan olingan bo'lib (deixis) "ko'rsatish"," ishora", " eslatish" kabi ma'nolarni anglatadi. Yunon grammatikachilarning fikricha, olmoshlarning otlardan asosiy farqi olmoshlar predmetning hech qanday xususiyatini anglatmay, faqat uni ko'rsatish (unga ishora qilish) bilan chegaralanadi. Deyksis tizimining markazida so'zlovchi shaxs turadi va uning makon va zamonda o'rin olishi boshlang'ich nuqta bo'lib qoladi. Deyksis so'zlovchining nutq faoliyati jarayonida ma'lum makonda joylashganligini belgilaydi.[1, 41]

Deyksis va uning turlari shu davrgacha bir qancha tadqiqotlar misolida o'rganilgan va olimlar tomonidan turlicha tasniflangan. Jumladan, Ch. Fillmor deyktik iboralarni uch turga bo'lgan: 1.Obyekt o'rniga nisbatan; 2. Axborot tashuvchisi, axborot egasi; 3. Anaforik holati jihatidan. Uning fikriga ko'ra, birinchi turi joyga nisbatan qo'llanadigan deyksislar bo'lsa, ikkinchisi shaxsga nisbatan qo'llanadi. R.Lakoff ham deyksisni uch turga bo'lgan:

A) vaqt-makon deyksisi;

B) diskurs deyksisi;
C) emotsional deyksis. [6, 79]

S. Levinson deyktik markazni tarkib toptiruvchi qismlarni to‘rt guruhga bo‘ladi: a) markaziy shaxs-so‘zlovchi, b) markaziy vaqt-nutqiy jarayon ijro etilayotgan vaqt, v) markaziy makon-so‘zlovchining nutqiy harakat bajarilayotgan paytdagi o‘rni, g) ijtimoiy markaz-so‘zlovchining ijtimoiy mavqeyi.[8, 64] Sh.Safarov ushbu to‘rt guruhdagi deyktik maydon markazida so‘zlovchi shaxsi turishini ta’kidlaydi. [5, 164] M.B. Xo‘jamqulova esa jahon tilshunosligidagi tasniflarga yondashgan holda deyksis hodisasini quyidagicha tasnif qilgan:
1. Shaxs deyksisi; 2. Makon deyksisi; 3. Zamon deyksisi; 4. Diskurs deyksisi;
5. Sotsial deyksis.[6, 85]

MUHOKAMA VA NATIJALAR:

Bu maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Xurshid Davronning tarixiy mavzudagi “Sohibqiron nabirasi yoxud mitti yulduz qissasi” tarkibida keluvchi “Anqara utida porlar mungli oy…” nomli hikoyasini tadqiq obyektiga aylantirdik hamda deyksis aspektda o‘rganishni maqsad qildik.

Shaxs deyksisi: Shu davrgacha qilingan tadqiqotlarga tayanib shuni aytish mumkinki, kontekstda shaxs doim birlamchi bo‘ladi, boshqa deyktik birliklar uning atrofida yig‘iladi. Shaxs deyksisida olmoshning barcha turlari- kishilik, o‘zlik, bo‘lishsizlik, belgilash, gumon va so‘roq olmoshlari ishtirok etadi. Buni quyidagi misolda ham ko‘rishimiz mumkin:

Dam o'tmay ingragan tovush yana eshitildi, ingragan odam endi qandaydir bir so’zni aytganday bo’ldi. Ayol tovush chiqarib, juda sekinlik bilan uning nomini aytganini eshitdi. Kimdan so’rayotganini o’zi ham bilmasdan, baland ovoz bilan so’radi:
— Kim u?!.. Meni chaqirayotgan kim? [7]

Kim? so‘roq olmoshi hamda **u** kishilik olmoshi matnda jang maydonidagi yarador kishiga ishora qilib kelgan.Bunday deyktik vositalar deyksis hodisasini yuzaga keltirmoqda. Shaxs deyksisida qo‘llanadigan deyktik birliklar vaziyatga ko‘ra turlicha qo‘llanadi. Quyidagi matnda so‘zlovchi va tinglovchi uchun ko‘rinmagan, ammo har ikkisiga ayon bo‘lgan shaxsga ishora qilingan:

Ko’zlaridan shashqator yosh oqib turgan onaizor qattiq ho’ngrab yubordi:
— Bu qanday ko’rgulik bo’ldi? **Kim** seni bu holga soldi? [7]

Hikoyadagi turk onasi farzandini Temur jangchilari shunday holga solganligini biladi, ammo yuragidagi alam shunday savol berishga undaydi.

Shaxs deyksisining ikkinchi turi- ham so‘zlovchi uchun, ham tinglovchi uchun ko‘rinib turgan va ayon bo‘lgan shaxs haqida quyidagi matnda gap ketmoqda:

Faqat ona **bu** ingrab yotgan yigitning ust-boshidan uni turkistonlik ekanini fahmladi. Qachonlardir uning ota-bobolari yashagan Turkistondan… Balki **bu** yigit bobosi ona yurtimiz deb rivoyat qilgan Nurota tog’laridandir?! [7]

Bu ko‘rsatish olmoshi jang maydonidagi o‘lim bilan olishayotgan yigitga ishora qiladi. Navbatdagi matn tarkibida esa **u** kishilik olmoshi orqali shaxs deyksisi ifodalangan:

“Uyga olib borib, liboslarini almashtirish kerak! Bo’lmasa, qo’shnilar **uni** o’ldirib qo’yishlari turgan gap…” [7]

Yuqoridagi matnda **“U”** ning kim ekanligi albatta, kontekstdan ma’lum bo‘ladi, ya’ni nutq o‘zlanib turgan paytdan oldinroq turkistonlik yarador askar haqida gap boradi. Dushman tomonning askarini ko‘rgan har qanday inson unga yaxshilik tilamasligi matn mazmunidan ayon.

Makon deyksisi: Voqelikning idrok qilinishida zamon va makon muhim hisoblanadi. Muloqot jarayonida ishtirokchilarning egallagan makonga ishora qilishlari makon deyksisini hosil qiladi. Nutqda joyga ishora qilinayotganda makon har doim ham o‘z nomi bilan atalavermaydi. Aksincha unga ishora qiluvchi deyktik birliklardan foydalaniladi. Makon deyksisini hosil qiluvchi deyktik

birliklarga o‘rin ravishlari va ko‘rsatish olmoshlari kiradi. Bunday birliklar aniq makonning o‘rindoshlari hisoblanadi.

M.S.Ishanjanovaning “Makon deyksisi” nomli monografiyasida makonga ishora qiluvchi deyktik birliklar quyidagicha tasniflangan:

a) bu yer,shu yer, mana bu yer, bu yoq ravishlari semantik jihatdan so‘zlovchiga yaqin masofadagi makonni, b) u yer, ana u yer ,u yoq ravishlari so‘zlovchiga uzoq masofadagi makonni, v) o‘sha yer, ana o‘sha yer ravishlari matnda avval tilga olingan makonni anglatadi. [2, 61]

Obyekt sifatida tahlil qilayotgan hikoyamizda ham makonga ishora qiluvchi deyktik birliklar bir qancha. Buni quyidagi misollar orqali ko‘rishimiz mumkin:

Motamsaro oy yorug’i yoritib turgan Chubuk daryosi bilan Qizilchako’y oralig’idagi janggohdagi sukunatni faqat o’liklar bilan aralash-quralash bo’lib yotgan yaradorlar va jon berayotganlarning ingroqlari, egasiz qolgan, besaranjom va uyum-uyum murdalardan hayiqib, yurishga yo’l topolmay bezovtalangan hurkak otlarning notinch kishnashlari buzardi.

Bu keng maydonda qandaydir bir soya jonsiz jasadlar orasidan zo’rg’a qadam tashlab, tentirab yurardi. [7]

Bu ko‘rsatish olmoshi yuqorida nomi berilgan jang maydoni ,ya’ni Chubuk daryosi bilan Qizilchako‘y daryosi oralig‘idagi maydonga ishora qilgan.

Keyingi matnni tahlilga tortamiz:

— Men seni otang bilan bobong yoniga qo’yaman, o’g’lim! **U yer** yaxshi, qishlog’imiz ko’rinib turadi. Men ham hovlimizdan turib mozoringni ko’rib turaman…[7]

Muallif **u yer** ravishi orqali so‘zlovchiga uzoq masofadagi makonni , ya’ni ota-bobolar mozorini nazarda tutmoqda. Bu o‘rinda ishora qilinayotgan makon ham so‘zlovchi uchun ham tinglovchi uchun ayon bo‘lgan, ammo ko‘rinib turmagan makonni anglatadi. O‘rin-joy ravishi esa deyktik birlik vazifasini bajargan.

Zamon deyksisi: Nutqda hodisalar bayonida zamon deyksisi makon deyksisi kabi juda muhimdir, chunki har bir voqea-hodisa ma’lum bir vaqtda amalga oshadi. Shunga ko‘ra nutqiy faoliyat jarayonida zamon ma’nosini anglatuvchi deyktik birliklar qo‘llaniladiki, bunday birliklar zamon deyksisini ochib beruvchi vositalar hisoblanadi.Ushbu vositalar orqali nutqiy voqelikning qaysi zamonda ro‘y berganini anglashimiz mumkin. Hikoya matnidan olingan quyidagi parchada ham zamon deyksisini uchratishimiz mumkin:

Ona janggohda uzoq tentirab yurdi.....**Shu payt** ona qulog’iga ingragan tovush eshitildi. [7]

Ma’lumki, zamon deyksisini hosil qiluvchi vositalar nutq so‘zlanib turgan paytdan oldin yoki keyin yuz berganini anglatadi. Berilgan misolda ham payt ravishi nutq jarayonidagi davrga, ya’ni onaning janggohda jigargo‘shasini izlagan paytiga ishora qilgan.

Dam o‘tmay ingragan tovush yana eshitildi, ingragan odam endi qandaydir bir so’zni aytganday bo’ldi.[7]

Dam o‘tmay so‘zi esa ish-harakatning nutq so‘zlanib turgan paytga yaqin zamonda ro‘y berganligini anglatadi hamda zamon deyksisini hosil qiladi.

Quyidagi misolda esa ham so‘zlovchi uchun, ham tinglovchi uchun ayon bo‘lgan zamonga nisbatan **hozir** payt ravishi zamon deyksisini hosil qilgan:

O’g’lining qattiq ingrab yuborgani onani hushiga keltirdi. U o’g’li ustiga egilib, uning yuz-ko’zidan o’parkan, siniq tovush bilan bo’zladi:

— Tirikmisan, bolam, tirikmisan?!.. Xudoyimga ming qatla shukur, ming qatla shukur! **Hozir** men yaralaringni bog’layman… uyga olib boraman…[7]

Qachonlardir gumon olmoshi yordamida hosil qilingan deyksis so‘zlovchi va tinglovchi uchun ko‘rinmagan, ammo har ikkisiga ham ayon bo‘lgan zamonga ishora qilgan:

Faqat ona bu ingrab yotgan yigitning ust-boshidan uni turkistonlik ekanini fahmladi. **Qachonlardir** uning ota-bobolari yashagan Turkistondan…[7]

Sotsial deyksis: Tilshunoslikda nutqiy muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy mavqeyiga ishora qilish sotsial deyksis sanaladi. Ijtimoiy holat deyksisini shakllantiruvchi til birliklari so‘zlovchining o‘zi va boshqa nutq ishtirokchilarining ijtimoiy maqomiga ishora qilish bilan birga uning subyektiv bahosini ham ifoda etadi. Sh.Safarov suhbatdoshga nisbatan bildirilayotgan munosabat yashirin yoki ochiq, ijobiy yoki salbiy, bevosita yoki bilvosita ko‘rinishlarga ega bo‘lishini ta’kidlaydi. [5, 212] O‘zbek tilida sotsial deyksisni shakllantiruvchi deyktik birliklarga olmoshlar, murojaat birliklari, ijtimoiy xoslangan leksik birliklar, ayrim qo‘shimchalar kiradi. Ushbu deyktik birliklar orasida kishilik olmoshlari alohida o‘rin egallaydi.[3, 100] Biz tahlilga tortgan hikoyamiz asosida deyktik birliklardan olmoshlar va murojaat shakllarini ko‘rib chiqamiz.

Ma’lumki, olmoshlar nutqiy vaziyatga bog‘liq holda yoshidan, jinsidan qat’iy nazar, ayol, erkak, katta, kichik, yosh-u qari, umuman har qanday shaxsga nisbatan qo‘llana olshiga ko‘ra universal hisoblanadi. Hikoyadan olingan matnda ham olmoshlarni, ham murojaat shakllarini deyksis hodisasini yuzaga keltirganini ko‘rishimiz mumkin:

— Ena!.. Enajon! – dedi o’g’lining tovushi.

— Yo tavba! Yo Xudoyim!.. – Esini yo’qotgudek holatga tushgan ona baqirib yubordi. – Nahotki?! …Nahotki, bu **sen** bo’lsang, **o‘g‘lonim**, Qutlug‘begim?! [7]

Nutq ishtirokchilarining ijtimoiy holatiga ishora qiluvchi faol birliklardan yana biri murojaat shakllaridir. So‘zlovchi va tinglovchining jamiyatda qanday o‘rin tutishi, yoshi, jinsi, lavozimi, kasb-kori ,ya’ni sotsiumning ijtimoiy statusiga qarab murojaat shakllari tanlanadi.[4.179] Yuqoridagi muloqot jarayonida **enajon** hamda **o‘g‘lonim** qarindoshlik otlarining murojaat shakli sifatida qo‘llanilishida kommunkantlarning yoshi hamda jinsiga ishora qilingan. Oxirgi gapda qo‘llangan **sen** kishilik olmoshi bir vaqtning o‘zida ham shaxsga ishora sifatida shaxs deyksisini, ham yoshga ishora tarzida sotsial deyksisni yuzaga keltirgan.

Quyidagi matn olmosh va murojaat birliklarining sotsial deyksisga ishorasini isbotlovchi mazmunga egaligini ko‘rishimiz mumkin:

O’g’lining qattiq ingrab yuborgani onani hushiga keltirdi. **U** o’g’li ustiga egilib, uning yuz-ko’zidan o’parkan, siniq tovush bilan bo’zladi:

— Tirikmisan, **bolam**, tirikmisan?!.. Xudoyimga ming qatla shukur, ming qatla shukur! Hozir **men** yaralaringni bog’layman… uyga olib boraman…

— Sovuqqotyapman, **onajon**… Tezroq meni uyga olib bor… [7]

Yuqoridagi parchada deyktik birlik sifatida murojaat birliklaridan qarindoshlik otlarining qo‘llanilishi sotsial deyksisni hosil qiladi. **Bolam** murojaat birligi tarkibidagi –m egalik qo‘shimchasi yaqinlikni, qarashlilikni ifodalasa, **onajon** so‘zi tarkibidagi –jon qo‘shimchasi esa erkalash ma’nosini ifodalab, adresant va adresatlarning ijtimoiy maqomiga, shu bilan birgalikda milliy mentalitetga ham ishora qilib kelmoqda. **Men** va **u** kishilik olmoshlari ham deyktik birlik sifatida matnda sotsiallikni hosil qilgan. Bizningcha, bunday holatlarda kishilik olmoshlari sotsial deyksis va shaxs deyksisini yuzaga keltiruvchi vosita sifatida murakkab deyktik birlik hisoblanadi. Ular bir vaqtning o‘zida kishilarga ishora qilib shaxs deyksisini ,ularning o‘zaro munosabatini ko‘rsatib ijtimoiy deyksisni hosil qiladi.

Misollar tahlilidan ko‘rish mumkinki, olmoshlar va murojaat shakllari sotsial deyksisni yuzaga keltiruvchi asosiy birliklardan hisoblanadi.

XULOSA:

Yuqorida keltirilgan nazariy fikrlardan ma’lumki, deyksis hodisasi keng qamrovli bo‘lib, oxirgi yillarda tilshunoslar uchun dolzarb muammolardan biriga aylandi desak yanglishmaymiz. Ushbu mavzuga oid tadqiqotlar soni ancha o‘sdi va ularda deyksis hodisasi turli tomondan tadqiq qilindi. Xullas, tilimizda deyksis hodisasini shakllantiruvchi birliklar xilma-xil bo‘lib, ularning har biri alohida tadqiq qilinsa, yangi yo‘nalishlardan biri bo‘lgan pragmalingvistikaning rivojlanishi uchun

dastak vazifasini o’taydi. Xurshid Davron ijodida deyksis hodisasi mavjud matnlar ko‘p uchraydi. Ularni o‘rganish va tahlil qilish badiiy asarni to‘liq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Сулайманова Н. Ж. Тилшуносликда дейксис ходисасининг лисоний мохияти. Урганч Давлат Университети “ Илм сарчашмалари” илмий-методик журнал , 2020. № 9
2. Ишанжанова М.С. Макон дейксиси. Монография. – Андижон, 2023. Б-128
3. Давлатова Р.Х. Ижтимоий холат дейксиси ва унинг узбек тилида ифодаланиши. Андижон Давлат Университети Илмий хабарномаси . – Андижон, 2020. № 1. 99-104-бетлар
4. Йулдашева Х. Бадиий матнда ижтимоий дейксисга ишора килувчи грамматик воситалар.”Суз саньати” халкаро журнали. 2022. № 4. 176-181 бетлар.
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008.
6. Xujamkulova M.B. Sodda gapda kommunikatsiya va pragmatika munosabati. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori …..diss. T-2022.
7. http://kh-davron.uz/ijod/drama/xurshid-davron-anqara-ustida-porlar-mungli-oy. 29.12.2023
8. Levinson S.C. Pragmatics. — Cambridge: Cambridge University Press, 2008.— P. 64